

“QARAQALPAQSTAN SHARAYATINDA ZAMANAGOY INTENSIV ALMA BAĞLARIN JARATIW TEXNOLOGIYALARIN ÚYRENIW”

Reypnazarova Gulperiyzat Nukusbayevna

Qaraqalpaqsatan awıl xojalıǵı hám agrotexnologiyalar

instituti a.x.i.f.d asisstanti Gulperiyzat.@gmail.com

Bayniyazova Albina Baxtiyarovna

Qaraqalpaqsatan awıl xojalıǵı hám agrotexnologiyalar instituti

Miyweshilik hám júzimshilik tálim baǵdarı 4-kurs studenti

Annotatsiya: Ilmiy maqalada almanıń Qaraqalpaqstan sharayatına maslasqan intensiv alma sortlarınıń baǵların jetistirip olardıń ósiw, rawajlanıw, sabıwshılardı tańlaw, forma beriw, hár qıylı ósiw sharayatın úyreniw Baǵ maydanın shólkemlestiriw, rejelew hám baǵ jaratıw, Intensiv baǵlardı tóginlew, Ónimdi jiynap-terip alıw hám saqlaw boyınsha jumıslar alıp barıldı.

Kalit so‘zlar: Alma, sabıw, Golden dilishes, Pink Ledi, Fuji sortı.

Аннотация: Научная статья выращивание садов интенсивных сортов яблони, адаптированных к условиям Каракалпакстана, их рост, развитие, выбор сапвантагов, придание формы разнообразие, изучение условий эксплуатации Организация садовых участков, планирование, а также создание сада, интенсивное озеленение садов, сбор и хранение урожая.

Ключевые слова: Яблоко, прививка Голден дилешес, Пинк Леди Фуджи сорт.

Abstract: Scientific article cultivation of orchards of intensive apple varieties adapted to the conditions of Karakalpakstan, their growth, development, selection of cultivars, shaping diversity, study of operating conditions, Organization of garden plots, planning, as well as garden creation, intensive gardening, harvesting and storage of crops.

Keywords: Apple, Golden dileses graft, Pink Lady Fuji variety.

Respublikamizda urug' mevalilar, takidlab aytadigan bo'lsak olma etishtirish va uning eksport qilish hajmini oshirish, maqsadida intensiv bog'dorchilikni ilmiy asosda rivojlandirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shunga bog'liq respublikada chet eldan keltirilgan kuchsiz o'suvchi ko'chatlar asosida ko'plagan intensiv bog'lar yuzaga keltirilgan bo'lib, bu bog'larda keyingi zamonaviy agrotexnik tadbirlarni qo'llash, ularning shohlariga shakl berish va o'stirishning eng yangi usullarini qo'llash dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda.

Olma dunyodagi eng ko'p etishtiriladigan meva hisoblanib, uning 7500 dan ortiq turi bor. Olmani po'sti bilan yegan maqul, sababi barcha foydali elementlar po'sti tagida yig'iladi. Olma urug'ida ovqat hazmini yaxshilaydigan tsellulozalar ko'p. Olma qondagi xolesterin hajmini kamaytiradi. Shuningdek olma mevasi suyak va tishlarni mahkamlashda, shuningdek saratonning oldini olishda yaxshi foyda beradi. Olma (Malus mill) guruhining 50 ga yaqin turi bor. Ularning asosiylari:

O'rmon olmasi, Sibir olmasi, Yumshoq olma, yovvoyi (Sivers) olmasi, Turkman olmasi, Qizil olma, Shereshniya bargli olma (kitayka), Kavkaz yoki Sharq olmasi, Pakana bo'yli olma, Dusen, Paradizka (rayka) hisoblanadi.

Mevasining shakli, yirikligi-maydaligi, rangi va xushbo'yliги bilan bir-biridan farq qiladi. Olma daraxti kuchli payvantaglarda o'stirilganda orta hisobda 45-50 yil, ayrim tuplari esa 100 yil va undan ham uzoqroq yashaydi. Bargi yangi novdalardagi yosh barglar dastlabki 12-15 kunda o'zining rivojlanishi uchun daraxtning boshqa qismlarida ishlab chiqarilgan oziq moddalarni sarflaydi. Keyinchali barglar unimi mevalarning va yosh novdalarning shakllanishiga, kurtak paydo bo'lishiga va daraxtning zahirasi uchun sarflanadi. Barg sathi shunchali yaxshi bo'lsa mevalarning o'sishi uchun sharoitlari ham shuncha yaxshi bo'ladi. O'suvchi meva hisobiga barg qancha ko'p tog'ri kelsa, u shunchalli yaxshi rivojlanadi. Bargda fotosintez processi quyosh nuri, suv va karbonat angidrid qatishuvida yuzaga keledi. Bulardan bittasining bu jarayonda qatnashmasdan qolishi digani bu fotosintez yuz bermaydi digan ma'noni bildiradi. Agar suv cheklangan bolsa, karbonat angidrid gazi barglarga kira olmaydi va reaksiyaga kirishmaydi. Quyosh nuri qanchalli kuchli qizdirishidan qaddi nazar fotosintez yuz bermaydi. Shuningdek, suv va karbonat angidrid etarli darajada

bolishiga qaramastan havoning bultli bolishi, daraxtga boshqa narsalardan soya tushishi yoki daraxt ichki qismida yuqori zichlik tasirida qorong'i bo'lishi natijasida fotosintez processini toliq kuch bilan amalga oshmaydi.

Tajriybe alıp barıw sharayatı hám uslubı. Tadqiqot mevalilikda umumiy qabul qilingan quyidagi uslublardan foydalanilgan holda olib borildi: X.Ch. Bo'riyev va boshqalarning "Mevali va rezavor-mevali o'simliklar bilan tajribalar o'tkazishda hisoblash va fenologik kuzatuvlar metodikasidan, fiziologik tadqiqotlar V.A. Kolesnikovning "Mevali ekinlar navlarini sinash uslubi va dasturi"ga, "Mevali va rezavor mevali ekinlar bilan tajribalarda hisobga olish va kuzatishlar metodikasi", "Nokning klon payvandtaglarini kompleks o'rganish bo'yicha metodik tavsiyalar", ildiz tizimining faol qismini o'rganishda "monolitlar" usulidan; S.A. Ostrouxovaning "Mevali va rezavor mevali ekinlar ko'chatlarini yetishtirish bo'yicha uslubiy ko'rsatmasidan" foydalanildi;

Tajribada 6 yoshli olma daraxtlarining harxil osish kuchiga ega payvantaglarining erkin holatdava simbag'azda o'stirilganligi tekshirib kuzatib turildi.

6 yoshli olma daraxtlarining harxil o'sish kuchiga ega payvantagda ham harxil usulda o'skanligining hajmi

T /r	Payvant ag	Erkin holatta o‘suvchi		Simbag‘azda o‘suvchi	
		Darxtni ng boyi, sm	tanasini ng eni (diametri) sm	Darxtni ng boyi, sm	tanasini ng eni (diametr), sm
Golden delishes sorti					
1	Urug‘li kuchli payvantag	278	255	165	105

2	Pás boyli payvantag	235	221	174	83
3	Pás boyli M-9	173	158	162	61
Fuji sorti					
1	Urug'li kuchli payvantag	258	271	173	110
2	Pás boyli payvantag	210	237	160	90
3	Pás boyli M-9	162	177	150	63
Grenni Smit					
1	Urug'li kuchli payvantag	265	273	178	113
2	Pás boyli payvantag	215	245	175	95
3	Pás boyli M-9	170	185	163	68
Pink Ledi					

1	Urug'li kuchli payvantag	270	263	176	111
2	Pás boyli payvantag	228	239	173	93
3	Pás boyli M-9	168	181	162	65

Tajribalarda kuztilishicha urug'li kuchli payvantag erkin holatda o'suvchi daraxtining bo'yi 6 yoshli Golden delishes navida 278 sm bo'lgan bolsa tanasining diametri 255 sm di tashkil etdi. Simbag'azda o'suvchi daraxtning boyi esa 165 sm, tanasining eni 105 sm di tashkil qilganligini kórishimiz múmkin. Pás bo'yli payvantagda erkin holatda ósgan Golden delishes navli daraxtining boyi 235 sm tanasining eni 221 sm di tashkil etdi. Simbag'azda o'sgan pás bo'yli payvantag daraxtining bo'yi 174 sm, tanasining eni 83 sm bo'lganligi tajriybada ko'rindi.

Pás boyli M-9 payvantag daraxti erkin holatda o'sganda 173 sm bo'lsa, tanasi 158 sm bolgan, Golden delishes navi Simbag'azda o'stirilganda daraxtining bo'yi 162 sm, tanasining diametri 61 sm di tashkil etdi.

Fuji navida bo'lsa daraxti erkin holatda o'sganda urug'li kuchli payvantag daraxtining boyi 6 yoshli daraxtda 258 sm di, tanasining diametri 271 sm di tashkil etadi. Simbag'azda o'stirilgan olmanin fuji navi daraxtining bo'yi 173 sm bolgan bo'lsa, eni 110 sm bo'lganligi kuzatildi. Past bo'yli payvantagda Fuji navli olma daraxti erkin holatda o'stiliganda 210 sm uzunlikka etgan bo'lsa, daraxtning eni 237 sm di tashkil etdi, Sim ustunda o'stirilgan olma navida daraxt bo'yi 160 sm, tanasi eni 90 sm bo'lganligi kuzatildi. Past bo'yli M-9 novda erkin holatda o'stirilganda 6 yoshli Fuji olma navi daraxtining bo'yi 162 sm, eni 177 sm bo'lgan bo'lsa, sim ustunda o'stirilgan terakning bo'yi 150 sm, eni esa 63 sm ni tashkil etdi.

Grenii Smit olma navi erkin holatda urug'li kuchli payvandustda o'stirilganda daraxtining bo'yi 265 sm balandlikka yetdi, daraxtining diametri esa 273 sm ni tashkil etdi. Past bo'yli payvandtagda o'stirilgan Grenni Smit navli olma daraxtining bo'yi 215 sm bo'lgan bo'lsa, uni 245 sm bo'lganligi tadqiqotlarda kuzatilgan. Grenni Smit olma navi sim ustunda o'stirilganda 6 yoshli olmaning bo'yi 175 sm, uni esa 95 sm bo'lganligi kuzatildi. M-9 past bo'yli payvandtagda Grenni smit olma navi o'stirilganda 6 yoshli olma daraxtining bo'yi 170 sm bo'ldi, diametri 185 sm ni tashkil etdi. Grenni Smit olma navi past bo'yli M-9 olma payvandtagida sim ustunda 6 yil o'stirilganda daraxtining bo'yi 163 sm, diametri 68 sm bo'lganligi kuzatildi.

Pink Ledi olma navi urug'li kuchli payvandtagda 6 yil davomida erkin holatda o'stirilganda olma daraxtining bo'yi 270 sm ga yetdi, diametri esa 263 sm bo'ldi. Pink Ledi olma navini simyog'ochga tarab o'stirilganda 6 yillik olma daraxtining bo'yi 176 sm ni, uni esa 111 sm ni tashkil etadi. Past bo'yli payvandustda olma navi o'stirilganda bo'yi 228 sm ni uni esa 239 sm ni tashkil etadi. Sim ustunga bog'langan olma daraxtlarining bo'yi esa 173 sm ni, diametri esa 93 sm bo'lganligi kuzatildi. M-9 past bo'yli payvandtagda o'stirilgan olma daraxtlarining bo'yi Pink Ledi navida erkin holatda o'sgan daraxt bo'yi 168 sm, uni 181 sm ni tashkil etdi. Sim ustunda o'stirilgan olma navining 6 yoshdagi daraxtining bo'yi 162 sm, uni esa 65 sm ni tashkil etganligi kuzatildi.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra turli olma navlarida erkin holatda o'stirilganiga nisbatan sim ustunga tortib o'stirilgan olma navlari yaxshi natija ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, olmaning Golden delishes navi, Fuji navi, Grenni Smit va Pink Ledi navlarini turli payvandustlarga solib simobsizda o'stirish usuli erkin holatga qaraganda yaxshi natija ko'rsatgani ma'lum bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoev Sh. "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora tadbirlari tog'risida" PQ-4575-son qarori. –Toshkent, 2020 yil 28-yanvar.
2. Ostanaqulov T.E., Islamov C.Y., Xonqulov X.X., Sanaev S.T., Xolmirzaev D.K., "Mevachilik sabzavotchilik" S., 2011-y 232-250 b

3. Rajametov Sh., Abrorov Sh “Zamonaviy intensiv nok bog‘larini yaratish va parvarishlash texnologiyasi” Toshkent “Bakteria press”, 2018. b – **11-80**
4. Aripov A.U., Aripov A.A., “Urug‘li intensiv meva bog‘lari” Toshkent: “Sharq”, 2013 –b **108-121.**